

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TA'LIM TIZIMINING O'ZIGA XOSLIKLARI

Yakubova Sitora Sharifovna

BMTI akademik litseyi yetakchi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimi bo'yicha ilg'or tajribalar tahlil etilgan. Ta'lim tizimining uzviyligi va uzluksizligi, ta'lim sohasidagi yangiliklar batafsil bayon qilingan. Unda, jumladan, Janubiy Koreya, Germaniya davlati ta'lim jarayonining integratsion xususiyatlari, yo'nalishlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim tizimi, ta'lim turlari, diniy maktab, individual ta'lim, hamkorlikda o'qitish, sun'iy intellekt.

Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Muvaffaqiyat asosini ham eng avvalo ilm, ta'lim va tarbiya tashkil etadi. Chunki, ilm-fanga suyangan davlat hech qachon yutqazmaydi. Ta'lim sohasi kuchli davlatlar uchun tayanch bo'lgan barkamol avlodni yetkazib beradi.

Shu sababli ham nafaqat O'zbekiston balki, butun dunyo mamlakatlarida ta'lim sohasiga juda katta e'tibor qaratiladi va bu soha uchun juda akttta mablag' ajratiladi. Butun dunyo bo'ylab bu soha bo'yicha ko'plab tizimlar tashkil etilgan bo'lsada, ularning ko'plari yaxshi natija bermayapti. Ammo ular orasida juda yaxshi natija ko'rsatayotgan, o'zini har tomonlama oqlayotgan va boshqa mamlakatlar namuna olayotgan ta'lim tizimlari ham mavjud. Masalan, Yaponiya talim tizimi, Amerika ta'lim tizimi, Germaniya ta'lim tizimi, Janubiy Koreya ta'lim tizimi va boshqalar.

Janubiy Koreyada ta'lim to'g'risidagi Qonun 1948-yilda qabul qilingan.[1] Janubiy Koreyada ta'lim raqobatbatdosh ta'lim tizimi hisoblanib, bu ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ta'lim olishning arzonligi, talab yuqori bo'lgani va istiqbolli mutaxassisliklar olish imkoniyati bilan ajaralib turadi. Koreya ta'lim

tizimiga asos qilib an'anaviy g'arb modeli olingan bo'lib, quyidagi bosqichlardan ibora:

- 1.Olti yillik boshlang'ich maktab;
- 2.Uch yillik o'rta maktab;
- 3.Uch yillik yuqori maktab ;
- 4.To'rt yillik kollej yoki universitet;
5. Ikki yil chuqur o'rganiladigan magistratura;
- 6.Uch yillik oliy ta'limdan keyingi ta'lim va boshqalar.[2]

Janubiy Koreya maktablarida o'quv yili ikki semestrda iborat bo'lib, birinchi semestr mart oyidan avgustgacha, ikkinchi semestr sentyabrdan fevral oyigacha davom etadi. Ikkita ta'til bor: yozda iyuldan avgustgacha va qishda dekabrda fevralgacha.

Koreyada bolalar olti yoshdan maktabga chiqishadi.Boshlang'ich maktabda sinflarning tig'izligini kuzatish mumkin. Ya'ni, har sinfda 50 nafargacha bola o'qiydi. Boshlang'ich maktabda dars 40 minut davom etadi va o'quvchilarga 9 ta fan o'qitiladi. Koreys tilini o'rganishga alohida e'tibor beriladi,arifmetika, ayrim ijtimoiy fanlar ham o'qitiladi. O'quvchilar dam olishi uchun turli o'yinlar va dam olish vaqtlari o'quv dasturiga kiritilgan.[3]

O'rta maktabda esa darslar 45 minut bo'lib, fanlar yana 4 taga ko'paytirilgan. 7-sinfda boshlab o'quvchilarga chet tillar o'rgatiladi. Ayniqsa, mamlakatda ingliz tiliga e'tibor kuchli. Ko'pchilik bu tilda bimalol muloqot qila oladi. Chet tillarni o'qitishga haftasiga 4-5 soat ajratilgan. Koreyslar klassik xitoy tilini majburiy ravishda o'rganadilar. 8-sinfda boshlab Xitoy tarixini o'rganishni boshlaydilar.

Yuqori maktabda darsning davomiyligi 50 minutga teng. Bu yerda ikki muhim jihatga to'xtalib o'tish zarur, yani, yuqori maktabga albatta, kirish imtihonlari topshirib kiriladi va o'qishlar ham pullik.

Koreyada hunar o'rgatish maktablari ham mavjud bo'lib, bu maktablarning 45 foizi bo'lajak mulkdorlarni tayyorlaydi, 23 foizida texnik kasb egalari yetishib chiqadi. Qolgan maktablarda dengizchilik, qishloq xo'jalik ixtisoslari o'zlashtiriladi.Shunisi diqqatga sazovorki, bu maktablarga korxonalar homiylik

qiladi. Bu esa “Ta’lim to’g’risida”gi qonunda belgilab qo’yilgan.[4]

Koreyada alohida iqtidorli bolalarga e’tibor kuchli. Ular uchun sport maktablari, ilmiy maktablar ochilgan. Jismoniy tarbiyaning rivojlanishiga Seul olimpiadasi katta ta’sir ko’rsatadi.

Koreyada rivojlanishdan orqada qolgan bolalar uchun maxsus maktablar mavjud. Bu maktablarning aksariyati xususiy yoki diniy tashkilotlarning xayriya mablag’lari hisobiga qurilgan. Davlat maktablarida din o’qitilmaydi. Lekin 3-sinfdan boshlab «Odobnoma» kabi maxsus fan joriy etiladi. Bu fan 12-sinfgacha o’qitilib, haftasiga 2 soat vaqt ajratilgan. Bu fan o’z ichiga dinni ham qabul qiladi. Bu fan o’quvchilarga qadriyat sifatida o’qitiladi. Bu butun tarbiya tizimi natijasidir. Ehromlarga borish, tarixiy yodgorliklar bilan tanishish, ma’naviy tarixni o’rganish maktab fanining majburiy davomi hisoblanadi.[5]

Mamlakatda oliy o’quv yurtlarining ta’lim tizimi yaxshi yo’lga qo’yilgan bo’lib ta’lim koreys va ingliz tillarida olib boriladi. Koreyada 104 ta oliy o’quv yurtlari mavjud bo’lib, ularning 80 foizi xususiydir. Hozir mamlakatda oliy o’quv yurtlarida o’qishga qiziqish juda kuchayib ketgan. Har yili maktab bitiruvchilarning 40 foizi o’qishga kiradi. Talabalar soni bo’yicha Koreya dunyoda birinchi o’rinda turadi. Lekin maktabgacha ta’lim muassasalari ishida bir qancha muammolar bor. Talab ehtiyojni qondira olmayapti. Shuning uchun 1982-yilda “Maktabgacha tarbiya to’g’risida”gi qonun qabul qilindi. Bu yerda tarbiya berish bolalar bog’chasidan boshlanadi. Shu tufayli bu tarmoq keyingi yillarda 60 foizga kengaydi. Bunda diniy tashkilotlarning hissi juda kattadir.

Koreyada pedagog kadrlar tayyorlash masalasiga ham katta e’tibor qaratiladi. Koreyadagi barcha talabalarning 6,5 foizi bo’lajak pedagoglardir. Mamlakatda 11 ta o’qituvchi tayyorlaydigan kollejlari mavjud. Har bir viloyat o’z kollejiga ega. Boshlang’ich sinflar o’qituvchisi bo’lish uchun 2 yil o’qish kerak. Biror fan o’qituvchisi esa birmuncha ko’proq o’qiydi.

Janubiy Koreyada ta’limning obro’si naqadar kattalagini quyidagi misoldan ham ko’rsak bo’ladi: Soliqlar tizimida ta’limiy soliq joriy qilingan: ishlab chiqaruvchilar foydaning ma’lum foizini maorifga yuboradilar. Davlat byudjetining

24 foizi ta'limga sarflanadi. Mamlakat prezidenti (u xalq ta'limi Davlat kengashini boshqaradi) shaxsan viloyatlar ta'lim boshqarmalari (bizdagi xalq ta'limi boshqarmalari kabi) boshliqlarini tayinlaydi. Bu ham ushbu mamlakatda maorifga qanchalar katta ahamiyat berilishini ko'rsatib turibdi.[8]

Germaniya dunyoda fan, ta'lim, iqtisodiyot, sanoat, madaniyat va boshqa ko'plab sohalari bilan mashhur bo'lib, eng rivojlangan mamlakatlar qatorida yuqori pog'onalarda turadi..Buning asosini esa Germaniyada tashkil etilgan ilg'or ta'lim tizimi sababdir.

Germaniyada ta'limining 1-bosqichiga maktabgacha muassasalar kiradi. Bular asosan bolalar bog'chalari, tayyorlov sinflari va kirish guruhlar bo'lib, bolalar otalar xohishiga ko'ra 3 yil davomida ixtiyoriy qatnaydilar. Maktabgacha ta'lim tizimi (elementarbereich) 3 yoshdan olti yoshgacha bo'lgan bolalarda o'z fikrini ifodalash, tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilish qobiliyatini shakllantirib, boshlang'ich ta'limga tayyorlaydi. Shu bois ham olmonlar bog'chalarni "tafakkur ustaxonasi" deb atashadi.

Maktab ta'lim tizimi quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

- boshlang'ich (primarstufe);
- o'rta (sekundarstufe I);
- yuqori (sekundarstufe II)

Boshlang'ich ta'limga bolalar 6 yoshdan qatnay boshlaydi. Bu bosqichdagi ta'limning maqsadi – bolalarga ta'limning ikkinchi bosqichidagi u yoki bu maktabda ta'limni davom ettirishga imkon beruvchi asosiy bilimlarni berishdan iborat. O'qish muddati 4 yil, Berlin va Brandenburgda esa 6 yilni tashkil etadi. Boshlang'ich ta'limda dastlabki 2 yil mobaynida o'quvchilar baholanmaydi. O'qituvchilar baho o'rniga bolaning individual rivojlanish holati xususida hisobot tayyorlaydi va o'zlashtirish tavsifnomasini taqdim etadi. Bu bosqichdagi ta'limning maqsadi – bolalarga ta'limning ikkinchi bosqichidagi u yoki bu maktabda ta'limni davom ettirishga imkon beruvchi asosiy bilimlarni berishdan iborat. O'quvchilarga 3-sinf dan baho qo'yila boshlaydi. Germaniyada 6 ballik baholash tizimi qabul qilingan. Bunga ko'ra,

- 1 – a'lo;
- 2 – yaxshi;
- 3 – qoniqarli;
- 4 – yetarli;
- 5 – yetarli emas;
- 6 – qoniqarsiz.[7]

O'quvchilar fanlarni eng kamida "4"ga o'zlashtirishi kerak. Boshlang'ich bosqichda bolalarga matematika, nemis tili, tabiatshunoslik, musiqa, estetika fanlari o'tiladi.

Ikkinchisida turli qobiliyat darajasidagi o'quvchilar bir guruh bo'lib yoki o'qitiladi. Bundan tashqari, ko'plab federal shtatlarda maxsus maktab turlari ham mavjud. Boshqa ko'plab mamlakatlarning maktab tizimidan farqli o'laroq, ularning natijalaridan qat'i nazar barcha o'quvchilar bir xil davlat imtihonlaridan o'tadilar. Ta'limning ikkinchi bosqichi (Sekundastufe II)ga gimnaziyaning yuqori sinflari, shuningdek kasbiy ta'lim va muassasalarda kasbiy ta'lim kiradi. Muassasalarda kasbiy ta'lim "dual tizim" deb ham ataladi. Unda ta'lim va ishlab chiqarishda amaliyot 2 yil davomida olib boriladi, bu o'qishni tugatish o'rta ta'limni tugatish bilan teng bo'lib, yakunida faqat kasbiy sohada o'qishni davom ettirish mumkin. Gimnaziyada 3 yil o'qib, o'quvchilar umumiy shahodatnoma "yetuklik attestati" – abitur oladilar, bu ularga istagan oliy o'quv yurtiga kirishga imkon beradi.[2]

Germaniyada maktab tizimida umumiy o'rta ta'lim maktablaridan tashqari kasb-hunar maktablarini ham o'z ichiga oladi. Federal shtatlarda maktab tizimi shtatlar chiqargan qonunlari bilan tartibga solinadi. Federal shtatlarning ta'lim faoliyatini muvofiqlashtirish uchun ta'lim vazirlari konferensiyasi (1949-yil) va Federal-davlat komissiyasi (1970-yil) tashkil etilgan. Germaniyada maktabda o'qish majburiy bo'lib, o'quvchilar davlat yoki rasman tan olingan maktablarda o'qishlari shart.[10]

Ta'limning uchinchi bosqichi oliy ma'lumot haqida diplom beruvchi oliy o'quv yurtlari va malaka oshirish o'quv muassasalari hisoblanadi.

Germaniyada maktab ta'limi majburiy va bepul bo'lib, fuqarolar 6 yoshdan 18

yoshgacha majburiy tartibda ta'lim olishi nazorat qilinadi.[9]

Xulosa qilib aytganda, ta'lim sohasi mamlakatning buguni va ertasini belgilab beruvchi soha hisoblanadi. Chunki, yosh va o'sib kelayotgan avlodga qanday ta'lim tarbiya berilsa, ular ham kelajakda yurt taqdiriga shunda munosabatda bo'ladi. Agar millat yoshlari yaxshi ta'lim-tarbiya ko'rgan bo'lsa, u millat doim birinchilikda va taraqqiyotning eng yuqori pog'onasida bo'ladi va u xalqni hech kim yenga olmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'aniyev G'. Xorijda ta'lim. T.:Sharq, 1995;
2. Mutalipova M.J. Qiyosiy pedagogika - T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2016-yil;
3. Hoshimov K. Nishonova S. Pedagogika tarixi -T.: A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2005 y. 287-297-6;
<https://president.uz/>;
<https://uz.wikipedia.org/>;
<https://kun.uz/>;
<https://www.samdu.uz/>;
<https://world.uz/>;
<https://yuz.uz/uz/news/>; <https://abt.uz/>.